

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSINI TA'MINLASHDA NAZORAT QILISHNING O'ZIGA XOS SHAKLLARI VA UNING XUSUSIYATLARI

Rahmatullayev Jahongir Jamshitovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

3-o'quv kurs 329-guruh kursanti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20360370>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini ta'minlashda nazorat institutining o'rni, uning o'ziga xos shakllari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, probatsiya tizimi, sud va ichki ishlar organlari faoliyati, elektron nazorat vositalari, jamoatchilik nazorati hamda profilaktik mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi ilmiy-huquqiy jihatdan yoritiladi. Maqolada xorijiy tajribalar ham o'rganilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

O'zbekiston Respublikasida ham probatsiya tizimi joriy etilishi bilan jazoni ijro etishning yangi shakllari paydo bo'ldi. Biroq ushbu jazolar samaradorligi bevosita nazorat mexanizmlarining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Nazoratning sustligi jazoning ijro etilmasligiga, qayta jinoyatchilikka yoki sud hukmi talablarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini ta'minlashda nazoratning o'ziga xos shakllarini tadqiq etish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar, nazorat, probatsiya nazorati, prokuror nazorati, sud nazorati, jamoatchilik nazorati, elektron monitoring nazorati.

SPECIFIC FORMS OF CONTROL IN ENSURING THE EXECUTION OF NON-CUSTODIAL SENTENCES AND THEIR FEATURES

Abstract. This scientific article analyzes the role of the supervision institution in ensuring the execution of non-custodial sentences, its specific forms and practical significance. It also covers the scientific and legal aspects of the interaction of the probation system, the activities of the judiciary and internal affairs bodies, electronic control tools, public control and preventive mechanisms. The article also studies foreign experiences and puts forward proposals for improving the legislation of the Republic of Uzbekistan.

With the introduction of the probation system in the Republic of Uzbekistan, new forms of punishment enforcement have emerged. However, the effectiveness of these punishments directly depends on the proper organization of control mechanisms. Weak supervision can lead to non-enforcement of punishment, recidivism or violation of the requirements of the court verdict. In this regard, the study of specific forms of supervision in ensuring the execution of non-custodial sentences is an urgent scientific issue.

Keywords: Non-custodial sentences, supervision, probation supervision, prosecutorial supervision, judicial supervision, public supervision, electronic monitoring supervision.

КОНКРЕТНЫЕ ФОРМЫ КОНТРОЛЯ И ИХ ОСОБЕННОСТИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ИСПОЛНЕНИЯ ПРИГОВОРОВ, НЕ СВЯЗАННЫХ С ЛИШЕНИЕМ СВОБОДЫ

Аннотация. В данной научной статье анализируется роль надзорного органа в обеспечении исполнения наказаний, не связанных с лишением свободы, его специфические формы и практическое значение. Также рассматриваются научно-правовые аспекты взаимодействия системы probation, деятельности судебных и внутренних органов, средств электронного контроля, общественного контроля и превентивных механизмов.

В статье также изучается зарубежный опыт и предлагаются меры по совершенствованию законодательства Республики Узбекистан.

С введением системы probation в Республике Узбекистан возникли новые формы исполнения наказаний. Однако эффективность этих наказаний напрямую зависит от надлежащей организации механизмов контроля. Слабый надзор может привести к неисполнению наказания, рецидиву или нарушению требований судебного приговора. В этой связи изучение специфических форм надзора в обеспечении исполнения наказаний, не связанных с лишением свободы, является актуальной научной проблемой.

Ключевые слова: наказания, не связанные с лишением свободы, надзор, надзор со стороны службы probation, прокурорский надзор, судебный надзор, общественный надзор, электронный мониторинг надзора.

KIRISH

Bugungi kunda jinoyat siyosatini liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillarini keng joriy etish natijasida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ulushi ortib bormoqda. Bunday jazolar jamiyatdan ajratmagan holda shaxsni tuzatish, uning ijtimoiy foydali aloqalarini saqlab qolish hamda takroriy jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar jumlasiga jarima, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash va boshqa jazolar kiradi.

Mazkur jazolar samaradorligi esa ularning ijrosini nazorat qilish mexanizmlarining to'g'ri tashkil etilishiga bevosita bog'liq.

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar — bu mahkumni jamiyatdan ajratmagan holda unga nisbatan qonunda belgilangan cheklov va majburiyatlarni qo'llash orqali jazoni ijro etish shaklidir. Mazkur jazolarning asosiy xususiyatlari: mahkum jamiyatdan ajratilmaydi, mehnat va oilaviy munosabatlari saqlanib qoladi, davlat xarajatlari nisbatan kam bo'ladi, ijtimoiy moslashuv saqlanadi, reabilitatsiya imkoniyatlari keng bo'ladi.

Shu bilan birga, bunday jazolarni ijro etishda samarali nazorat bo'lmasa, ularning tarbiyaviy va profilaktik ahamiyati pasayib ketishi mumkin.

Nazorat — bu vakolatli organlar tomonidan mahkumning sud hukmida belgilangan majburiyatlarga rioya etishini kuzatish, tekshirish va baholash faoliyatidir. Nazorat jinoyat-ijroiya tizimining muhim tarkibiy elementi bo'lib, u jazoni ijro etishning samaradorligini belgilaydi.

Nazorat tizimining asosiy maqsadi:

- sud hukmi ijrosini ta'minlash;
- mahkumning qonunga itoatkor xulqini shakllantirish;
- qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish;
- jamiyat xavfsizligini ta'minlashdan iborat.

Nazorat qilishning o'ziga xos shakllari:

1. Probatsiya nazorati — bu sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilinmagan yoki shartli ravishda jazoga hukm qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan vakolatli organlar tomonidan olib boriladigan nazorat va ijtimoiy-huquqiy ta'sir tizimidir. Probatsiya xizmatlari ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosida markaziy o'rin egallaydi. Probatsiya nazorati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mahkumni ro'yxatga olish;

- yashash joyini tekshirish;
- profilaktik suhbatlar o'tkazish;
- ijtimoiy moslashtirish;
- psixologik yordam ko'rsatish;
- xulq-atvor monitoringi.

Probatsiya tizimining asosiy afzalligi shundaki, u nafaqat nazorat qiladi, balki mahkumni qayta tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Probatsiya nazoratining xususiyatlari individual yondashuv, profilaktik xarakter, ijtimoiy moslashtirishga yo'naltirilganlik, insonparvarlik tamoyiliga asoslanishidan iborat hisoblanadi.

2. Elektron monitoring nazorati — bu maxsus texnik vositalar yordamida sudlangan yoki nazorat ostidagi shaxsning harakatlanishi, yashash joyi, vaqt rejimi va sud tomonidan yuklatilgan cheklovlarga rioya etishini masofadan turib kuzatish tizimidir. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida elektron nazorat vositalari keng qo'llanilmoqda. Bular elektron brasletlar, GPS kuzatuv tizimlari, biometrik nazorat vositalari, masofaviy monitoring platformalaridir. Elektron nazoratning afzalliklari doimiy kuzatuv imkoniyati, inson omilining kamayishi, nazorat samaradorligining oshishi, takroriy huquqbuzarliklarning kamayishidan iborat. Ammo elektron monitoring shaxsiy daxlsizlik masalalari, texnik nosozliklar, moliyaviy xarajatlar kabi muammolarni ham yuzaga keltiradi.

3. Ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari tomonidan nazorat – ichki ishlar organlarining turli sohaviy xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat turlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli farmoniga asosan probatsiya inspektorlarining faoliyati hududiy profilaktika inspektorlari bilan kunlik uzluksiz hamkorlikda tashkil etilishi belgilab qo'yilgan. Shu bois, **Profilaktika inspektorlari** eng asosiy nazorat subyektlaridan biri hisoblanadi. Ular mahkumning yashash joyini tekshiradi, oilaviy va ijtimoiy muhitini o'rganadi, profilaktik suhbatlar o'tkazadi, huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini baholaydi, probatsiya organlari bilan hamkorlik qiladi. Profilaktika inspektori mahalladagi vaziyatni yaxshi bilgani sababli nazorat samaradorligi yuqori bo'ladi. Bundan tashqari **patrul-post xizmati** jamoat joylarida tartibni saqlaydi, nazorat ostidagi shaxslarning huquqbuzarlik sodir etishini oldini oladi, tungi cheklovlarga rioya qilinishini tekshiradi. Masalan, tungi vaqtda ko'chada yurishi taqiqlangan shaxs aniqlansa, tegishli choralar ko'riladi. Shuningdek, **tezkor-qidiruv xizmatlari** agar nazorat ostidagi shaxs yashirib qolsa, nazoratdan bo'yin tovlasa, yangi jinoyat sodir etishda gumon qilinsa tezkor-qidiruv bo'linmalari uni aniqlash va ushlab choralarni amalga oshiradi.

4. Prokuror nazorati — bu prokuratura organlari tomonidan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat faoliyatidir. Mazkur nazorat turi jinoyat-ijroiya tizimida qonuniylikni ta'minlashning eng muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Prokuratura organlari sud hukmlarining to'g'ri ijro etilishi, mahkumlarning huquqlari buzilmasligi hamda vakolatli organlar faoliyati qonunga muvofiq olib borilishini nazorat qiladi. Prokuror nazoratining asosiy mohiyati sud hukmlarining qonuniy ijro etilishini ta'minlash, probatsiya va boshqa vakolatli organlar faoliyatini tekshirish, mahkumlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etishdan iborat. Bu nazorat turi davlat nomidan amalga oshiriladi va majburiy huquqiy kuchga ega.

5. Sud nazorati – bu sud tomonidan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar ijrosining qonuniyligi, asoslanganligi va belgilangan tartibda bajarilishini kuzatish hamda nazorat qilish faoliyatidir. Sud jazoni ijro etish ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi ya‘ni jazoni o‘zgartirish, muddatidan ilgari ozod qilish, jazo shartlarini yengillashtirish, intizomiy choralarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega. Sud nazorati inson huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoyasini ta‘minlovchi muhim kafolat hisoblanadi.

6. Jamoatchilik nazorati – bu fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, mehnat jamoalari va fuqarolar tomonidan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar ijrosi ustidan amalga oshiriladigan ijtimoiy nazorat faoliyatidir. Mazkur nazorat turi mahkumni faqat davlat organlari orqali emas, balki jamiyat ta‘siri orqali ham tuzatishga qaratilgan. Jamoatchilik nazorati probatsiya tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsni qayta tarbiyalash va ijtimoiy moslashtirishda katta ahamiyatga ega. Jamoatchilik nazorati ijtimoiy moslashtirish, ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash, qayta jinoyatchilikning oldini olish, mehnat bilan ta‘minlashga ko‘maklashishda namoyon bo‘ladi. Bu shaklning asosiy xususiyati — majburlashdan ko‘ra ijtimoiy ta‘sir mexanizmlariga tayanishidir.

XORIJIY TAJRIBA

Fransiyada JAP (Judge for Application of Sentences) — jazolar ijrosini nazorat qiluvchi maxsus sudya mavjud. Asosiy xususiyatlar:

- Jazoni ijro etish sudyasi tizimi kuchli.
- Probatsiya va reabilitatsiya birgalikda ishlaydi.
- Elektron monitoring keng qo‘llanadi.
- Sudya mahkum hayotining rejasini tasdiqlaydi.

Germaniya tajribasida ijtimoiy reabilitatsiya ustuvor hisoblanadi. Nazorat jarayonida psixologlar va ijtimoiy xodimlar faol ishtirok etadi. Asosiy xususiyatlar:

- **“Resozialisierung” prinsipi** – asosiy maqsad jamiyatga qaytarish;
- **Probatsiya xizmati** – Mahkum bilan ijtimoiy xodimlar ishlaydi, psixologik yordam majburiy element;
- **Sud nazorati kuchli** – Sud probatsiya shartlarini o‘zgartirishi mumkin, har bir bosqichda individual yondashuv mavjud.

Yaponiya tajribasida jamoatchilik nazorati kuchli rivojlangan. Ko‘ngilli kuzatuvchilar tizimi qayta jinoyatchilikni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Asosiy xususiyatlar:

- **Volunteer probation officers** - ko‘ngilli probatsiya ofitserlari ishlaydi;
- **Kuchli ijtimoiy bosim** - jamiyatning axloqiy nazorati juda kuchli;
- **Reabilitatsiya markazlari** - ishga joylashtirish va ijtimoiy moslashuv ustuvor.

KAMCHILIKLAR VA TAVSIYALAR

Hozirgi kunda amaliyotda quyidagi muammolar uchramoqda:

- probatsiya xodimlari yuklamasining yuqoriligi;
- elektron nazorat vositalarining yetarli emasligi;
- jamoatchilik nazoratining sustligi;
- normativ-huquqiy bazadagi ayrim bo‘shliqlar;
- mahkumlarni ish bilan ta‘minlashdagi qiyinchiliklar.

Albatta bu kamchiliklarni bartaraf etish borasida taklif va tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1. Probatsiya tizimini raqamlashtirish;
2. Elektron monitoring vositalarini keng joriy etish;

3. Mahalla institutlari rolini kuchaytirish;
4. Probatsiya xodimlari malakasini oshirish;
5. Reabilitatsiya dasturlarini kengaytirish;
6. Normativ-huquqiy hujjatlardagi bo'shliqlarni to'ldirish;
7. Xorijiy tajribani milliy tizimga moslashtirish.

XULOSA

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini ta'minlashda nazorat tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazoratning samaradorligi jazolarning tarbiyaviy va profilaktik maqsadlariga erishishni ta'minlaydi. Ayniqsa, probatsiya nazorati, elektron monitoring va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shuningdek, nazoratning insonparvarlik, individuallashtirish va profilaktik yo'nalganlik tamoyillari asosida tashkil etilishi mahkumlarning ijtimoiy moslashuviga hamda qayta jinoyatchilikning kamayishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini ta'minlashda samarali nazorat tizimini shakllantirish jamiyat xavfsizligini ta'minlash, qayta jinoyatchilikni kamaytirish hamda insonparvar jinoyat siyosatini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ushbu yo'nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni davom ettirish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi.
3. "Probatsiya to'g'risida"gi 2024-yil 7-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi 978-sonli qonuni.
4. Rustamboyev M.X. Jinoyat-ijroiya huquqi. – Toshkent.
5. Ismoilov B.I. Probatsiya faoliyatining nazariy asoslari.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli farmoni.
7. "Probatsiya xizmati faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari" o'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2025 - 90 bet.
8. IIV Vazirining 2025-yil 19-iyuldagi "Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 403-sonli buyrug'i.